



авол:

Nikohimni yaqinda o'qitdim. Lekin to'y bir necha oygacha qilinmaydi. Chunki kuyovim boshqa viloyatda o'qiydi. Kuyovim biznikiga ziyoratga kelganida men u bilan uzoq vaqt birga o'tirsam, ota-onamning jahllari chiqadi. Bu ish harom deyishadi. Biz nima qilayotganimizni kuzatib turishadi va agar men kuyovim bilan chiqib, uyga kech qaytsam ham jahllari chiqadi. Mening savolim: ota-ona farzandlarining ishlariga aralashishlariga Islom qanday qaraydi? Men ota-onamni hurmat qilaman. Lekin menimcha ular mening shaxsiy ishlarimni hurmat qilishmaganday bo'layabdi. Yoki mening tushuncham noto'g'rimi?

Жавоб:

Allohga hamd bo'lsin! Agar kishi ayol bilan shar'iy nikohni o'qitsa, u ayolning hamma narsasi: u ayolga qarash, u bilan birga xoli qolish, va u orqali lazzatlanmoq va shunga o'xshagan barcha ishlar erga halol bo'ladi. Lekin ayol uchun eriga itoat qilish farz bo'lmaydi. Shuningdek er zimmasiga ham ayol o'zini unga topshirishidan oldin nafaqa qilish vojib bo'lmaydi. Bu ishlar bugungi kunda aksar odamlarning urfida to'ydan keyin bo'ladigan narsadir.

Ba'zi ota-onalar nikoh bilan to'y o'rtasidagi muddatda qizlarini eri bilan xoli qolishini - nikoh oxiriga yetishiga to'sqinlik qiladigan ba'zi ishlar bo'lishidan yoki er qizga qo'shilib qo'yganu, qiz bokiraligini yo'qotgan holatida ajralish sodir bo'lib qolishidan yoki qiz eridan homilador bo'lib qolib, to'y bo'lishi kechikkani sababli odamlar oldida homila bo'lgani o'rtaqa chiqib qolishidan va shunga o'xshagan ota-onani uyatga qo'yadigan ishlar bo'lishidan qo'rqib - ma'qul deb bilishmaydilar. Shuning uchun ota-onaning hisobga olgan ishlari va ehtiyotkorliklari bo'lishi mumkin. Odatda



bu ishlar qizga nisbatan - eriga bo'lgan xursandchiligiga chulg'anib turgan vaqtda - e'tiborsiz bo'ladi. Shar'iy nikohdan keyin - agarchi to'ydan oldin bo'lsa ham - er-xotin bir-birlaridan lazzatlanishlari muboh bo'lsada, biroq ota-onaning xohishiga qarash va ular qo'rqayotgan narsalarini inobatga olish kerak bo'ladi. Shuningdek er ham qizning ota-onasining holatini tushunmoqligi va to'y bo'lishi bilan mushkullar yechilib ketishini kutib, oilaviy ziyoratlar bilan imkon qadar kifoyalanmoqligi kerak bo'ladi. Alloh taolodan o'zlaring istagan yaxshi niyatlarini berishini so'raymiz! Alloh to'g'ri yo'lga boshlovchi zotdir.

Islom - savol va javob № 3215 Shayx Muhammad Solih al-Munajjid